

## 19-dars

### Darsning mavzusi: Darak gap (53 – 57-mashqlar)

**Darsning ta'limiy maqsadi:** gap, uning turlari haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini (nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish, darak gap haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** qabul qilingan yangi ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikmasini shakllantirish, o'zining xato va kamchiliklarini tushunib, o'zini nazorat qila olsih va xatolarini tuzatishga kirishish; mustaqil o'qib-o'rghanish va bilimini muntazam oshirib borishga o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilgan holda gaplar tuzish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi dars

**Darsning metodi:** suhbat, analiz, mustaqil ish metodi. "Xotirangizni sinang!" ta'limiy o'yini

**Darsning johozi:** mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar, multimedia ilovalari.

### Darsning borishi

#### I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

#### II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

##### Husnixat daqiqasi:

*Tabiat – bizning onamiz.*

Uyga berilgan 52-mashq tahlil qilinadi. Savollarga berilgan javoblar tinglanadi.

1. Gap nima? U nimalardan tuziladi?

*Tugal fikr anglatgan, mazmunan bir-biriga bog'langan so'zlardan tuzilgan birlik gap deyiladi.*

**2.** Gaplar kichik harf bilan boshlanishi mumkinmi?

*Gaplar doim bosh harflar bilan boshlanadi.*

**3.** Gapning qanday turlarini bilasiz?

*Gaplar darak, so'roq, undov kabi turlarga bo'linadi.*

**4.** Gap matn hosil qila oladimi?

*Mazmunan bog'langan bir necha gaplar matn hosil qiladi.*

**"Xotirangizni sinang!" ta'limi o'yini.** O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi.

O'qituvchi stolini ustiga turli gaplar yozilgan tarqatmalar qo'yadi. Har bir guruhdan bir o'quvchi kelib, tarqatmani ochadi va unga yozilgan gapni o'qiysi. O'qigan gapini eslab qolib, guruhiga borib aytadi. Guruh o'quvchilari bu gapni imlo xatolarsiz va tinish belgilarini to'g'ri qo'ygan holda yozishlari kerak bo'ladi. Qaysi guruh berilgan gapni to'g'ri va xatosiz, tinish belgilariga amal qilgan holda yozgan bo'lsa, shu guruh g'olib bo'ladi.

### **III.Yangi mavzu bayoni.**

**53-mashqda** berilgan matn o'quvchilar bilan birqalikda o'qiladi, mazmuni haqida suhbatlashiladi. Savollarga javob berilib, o'quvchilar fikri tinglanadi.

1. Matnda nechta darak gap borligini aniqlang.

2. Siz matnga qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz?

3. Matndan nimalarni bilib oldingiz?

4. O'ng va chap miya sharlarining farqi nimada ekan? Fikringizni 2–3 ta xabar ma'nosini bildiruvchi gaplar orqali bildiring.

Mavzu taqdimot asosida o'quvchilarga tushuntiriladi.

*Biror narsa-voqeа haqida xabarni bildirgan gap **darak gap** deyiladi.*

*Darak gap oxirida ovoz pasayadi. Darak gapning oxiriga **nuqta** qo'yiladi.*

**54-mashq** yozma bajariladi. O'quvchilardan matndagi gaplar chegarasini ajratish, unga sarlavha qo'yish talab qilinadi.

*Bir kuni Alijon qo'y boqib yurgan edi. Qirga chiqsa, qarg'alar yong'oq yeyishayotgan ekan. Alijon ularga kesak otdi. Qarg'alar og'zidagi yong'oqlarni tashlab qochishdi. Birozdan so'ng qarg'alar yana yong'oq yeyishni boshladi. Alijon yana kesak otdi. Qarg'alarning jahli chiqib, unga hujum qilishdi. Alijon boshqa bunday qilmaydigan bo'ldi.*

### **VI.Yangi mavzuni mustahkamlash:**

**55-mashq** guruhlarda ishlangan holda bajariladi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh yumshoq, oq rangli narsalar ishtirok etgan 5 ta gap tuzsalar, ikkinchi guruh o'quvchilari qattiq, qora rangli narsalar ishtirok etgan 5 ta gapni tuzishlari talab etiladi.

**56-mashq** chalkash berilgan so‘zlarni o‘zaro bog‘lab gap hosil qilishni talab etadi.

Javoblar:

1. *Ona Vatanga hamisha sadoqatli bo‘l.*
2. *Har qanday kuch birlikda va hamjihat bo‘lishda.*
3. *Adolat taraqqiyotning mezoni ekanini bil.*

#### **IV. Darsga yakun yasash va baholash.**

Dars yakunida o‘quvchilar joriy darsda o‘zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So‘ngra dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

#### **V. Uyga vazifa berish.**

**57-mashq** sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta’kidlanadi.